

O‘ZBEK TILIDAGI MUROJAAT SHAKLLARINING GENEZISI VA TARAQQIYOTIDAGI KOGNITIV OMILLAR

Oripova Zaxro Shokir qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

2-kurs magistranti

zaxrooripova99@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada murojaat shakllarining davriy o‘zgarishlar natijasidagi taraqqiyoti masalasi yoritilgan bo‘lib, mazkur birliklarning yaratilishiga asos bo‘luvchi kognitiv omillar o‘rganilgan. Chunki muloqot xulqi va vokativlar millat xarakterining uzviy bir qismi, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Ba’zida nutqimizda biz foydalanayotgan vokativlarning ma’no-mazmuni, kelib chiqishi muayyan davrda noto‘g‘ri qo‘llanish natijasida o‘z mohiyatini tamoman yo‘qotganligiga guvoh bo‘lamiz. Maqolamizda mazkur lingvistik birliklarning ana shu jihatlarini tahlilga tortdik.

Kalit so‘zlar. Murojaat, vokativ, muloqot xulqi, undalma, kognitiv lingvistika, genesis, lingvokulturologiya.

ABSTRACT

This article highlights the issue of the development of forms of address as a result of periodic changes, and also explores the cognitive factors underlying the creation of these units. Since communicative behavior and vocatives are an integral part of the character of a nation, they are inextricably linked. Sometimes we observe that the meaning and origin of the vocative verbs we use in our speech have completely lost their essence as a result of misuse in a certain period. In our article, we analyzed these aspects of these language units.

Keywords. Address, vocative, communicative behavior, motivation, cognitive linguistics, genesis, linguistic culture.

KIRISH

Bugunga qadar murojaat shakllari ko‘p marotaba olimlar diqqatini tortib kelgan. Ular undalma, vokativ, muloqot xulqining muhim unsuri sifatida tahlil qilingan bo‘lib, olim S.Mo‘minov murojaat shakllari muloqot xulqining mazkur ajralmas qismini milliy xarakter – millat aholisining o‘ziga xos urf-odatlar, qadriyat, ana’analarini hisobga olmasdan turib o‘rganish imkonsizdir. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq deya ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

B.Rahmatullayeva o'zining nomzodlik dissertatsiyasida nutqiy etiketni o'zbek tili va rus tili asosida chog'ishtirib, farqlanishini "diqqat-e'tiborini jalb qiluvchi so'zlar va murojaat shakllari vositasida ochib bergan". Tadqiqot beradigan xulosalarga ko'ra so'zlovchi va tinglovchining etiket shakllarini tanlashi uning ijtimoiy mavqeyi, yoshi, ta'lim-tarbiyasi hamda tanish-notanishlik darajasi, nutqlarning emotsional holati va so'zlashish sharoiti bilan bog'liqligi tasdiq topgan.

NATIJALAR

Ko'rib turganimizdek, murojaat shakllari ya'ni vokativlar, asosan, adresat va adresant o'rtasida suhbatdoshning diqqatini tortish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan murojaat undalmaga qaraganda kengroq tushunchani ifodalaydi. Murojaat shakllari ijtimoiy-lisoniy jihatdan tahlil qilinganda, ular so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida aloqani vujudga keltirish bilan birga, suhbatning qanday davom etishi, kommunikantlarning o'zaro bir-biriga bo'lgan turfa munosabati, hurmati, jinsi, yoshi, shu bilan birga milliy madaniyatini ham yaqqol namoyon etadi.

Murojaat shakllarining jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan tarixiy-tadrijiy rivojlanishini o'rganish tadqiqotchilardan o'z tadqiqotlarida ijtimoiy omillar ta'siri bilan chambarchas bog'lab tadqiq etishni talab qiladi. Har bir til egasi o'z tarixini o'rganganda tarixiy manbalarga tayanib ish tutadi, negaki, tarixiy asarlarda qo'llangan murojaat shakllari hozirgi muloqot madaniyatimizdagi shakl va ifodalaridan keskin farq qiladi. Sababi ular muayyan tarixiy davr, ijtimoiy hayot va muhit mahsulidir.

MUHOKAMA

Fikrimiz dalili o'laroq bir nechta murojaat shaklini keltiramiz:

Ba'zida nutqimizda biz foydalanayotgan vokativlarning ma'no-mazmuni, kelib chiqishi muayyan davrda noto'g'ri qo'llanish natijasida o'z mohiyatini tamoman yo'qotganligiga guvoh bo'lamiz.

Shunday murojaatlardan biri *taqsir* so'zidir. Taqsir so'zi arabchadan tarjima qilganda sustkashlik, kamchilik, qisqartirish kabi ma'nolarni anglatadi. Taqsir va qusur so'zlarining o'zagi bitta bo'lib, so'z iste'molga kirgan ilk davrda kamina so'ziga ma'nodosh sifatida va kamtarlik ma'nosida qusurli, aybli, gunohli suhbatdoshingiz tarzida qo'llangan, ammo vaqt o'tishi bilan XIX asr o'rtalaridan so'z semantikasi ahamiyatini yo'qotib, oliy tabaqa vakillariga hurmat ko'rsatish vositasi sifatida foydalanilgan. Bugungi kunda tilga oid bilimning taraqqiyoti, so'zlarning genezisi keng miqyosda o'rganila boshlangach shu va shunga o'xshash so'zlarning asl mohiyati ochilib, sekinlik bilan iste'moldan chiqarila boshlandi.

Ayollarga nisbatan qo'llanuvchi murojaat shakllaridan yana biri *katta aya, katta oyi* shakllaridir. Bugungi kunda katta amakining xotiniga nisbatan ishlatilayotgan murojaat shaklining genezisiga ahamiyat beradigan bo'lsak, bugun foydalanilayotgan vazifasidan tubdan farq qilishiga guvoh bo'lamiz. Qadimda qo'sh xotinli davrda oiladagi to'ng'ich xotonga nisbatan oilaning barcha bolalari va xizmatkorlar tomonidan qo'llangan.

Rus madaniyati ta'sirida *моравуу* murojaati kirib keldi va u 90-yillarda *o'rtoq* murojaatiga o'z o'rnini bo'shatdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida *O'rtoq + unvon, familiya* qolipi rasmiy murojaatda keng qo'llana boshlandi. O'zbek tilining etimologik lug'atida mazkur so'zning etimologiyasi "Teng shaxslar bir-biriga nisbatan ishlatadigan so'z"¹ tarzida keltirilgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa quyidagicha ta'rif beriladi: "O'rtoq –

1. Yoshi teng yoki yaqin, o'zaro yaqin aloqada bo'lgan tengdoshlar (bir-biriga nisbatan); birga o'sgan; tengdosh, do'st, oshna.

2. Dunyoqarashi, faoliyati, yashash sharoiti va sh.k. jihatidan bir, g'oyaviy jihatdan yaqin kishi, hamfikir, hamg'oya.

3. Rasm. Kishilarga murojaatda, odatda ularning familiyasi, kasbi, unvoni va sh.k. bildiruvchi so'zga qo'shib ishlatiladi (sovet jamiyatidagi kishilar yoki sovet fuqarolari bir-biriga nisbatan).

4. s.t.turmush o'rtoq.

5. Biror ish-faoliyatda birga bo'luvchi, biror narsani baham ko'ruvchi; sherik", va "sof turkiy so'z" hisoblanadi: – Ajablanmangiz, o'rtoq! – dedi. Bekning mundan keyingi sog'ligi sizning ixtiyoringizda, bu o'yin emas, to'g'ri gap. (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).²

Mazkur ma'nolardan uchinchi mustaqillikkacha va mustaqillikning ilk yillarida faol qo'llangan bo'lib, o'sha davrlarga xos siyosat, ijtimoiy muhit mazkur semani sun'iy ravishda faollashtirib, siyosiy terming aylantirib yuborgan edi. Bu ijtimoiy jihatdan sovet mafkurasiga xizmat qilgan bo'lib, sinfiy ajralishning oldini olish va hech kimga janob deb murojaat qilmaslikning oldini olish uchun o'ylab topilgan edi. O'rtoq murojaatiga sinonim bo'lgan do'st, oshnalar rasmiy uslubdagi murojaatlarda uning o'rnini egallay olmaydi. Masalan, Oshna Olimov yoki Do'st Berdiyev deb rasmiy murojaat qilinmaydi. Mustaqillikdan so'ng siyosiy tizimdagi o'zgarishlar natijasida mazkur atama rasman siyosiy-ijtimoiy muloqotdan chiqib ketdi. Bugungi kunda ba'zan hamkasblarga yoki biror davraga qarata umumiy gapirganda o'rtoqlar deb murojaat qilish hollari ham uchraydi. Bundan ko'rinib

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). - Тошкент, Университет, 2000. 489-6

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 171-172

turibdiki, murojaat shakllarining ishlatilish doirasi qanchalik keng bo'lmasin o'z chegarasiga ega. Prezidentimiz tomonidan uning o'rnini "xonimlar va janoblar", "Hurmatli do'stlar", "yurtdoshlar", "vatandoshlar", "birodarlar", ba'zan yurakka yaqin olib "muhtaram vatandoshlar", "hurmatli yurtdoshlar" tarzida qo'llab ta'sirchan murojaat shakliga aylantiradi.³ Ba'zi hollarda o'z fikrini chuqurroq yetkazish va jonkuyarlikni talab qilgan holda "Baraka topkurlar" murojaatidan o'z nutqida foydalanadi. Bularning barchasi prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan milliy qadriyatlarimizni, o'zligimiz, ma'naviyatimizni, urf-odatlarimizni qayta tiklash borasidagi xizmatlar bilan bog'liq.

XULOSA

Murojaatlar tizimidagi evolyutsiya ijtimoiy tuzilishdagi o'zgarishlarni, ma'lum bir kommunikativ akt paytida u yoki bu shaklni tanlashni belgilaydi hamda ushbu tanlovni belgilaydigan ijtimoiy vaziyat parametrlarini ko'rsatadi. Diaxronik ma'noda leksik vositalarni o'rganishning ahamiyati, til va jamiyatning o'zaro ta'siri tarixi nechog'li muhim ekanligini anglagan holda, biz murojaatlarni nafaqat kommunikativ-pragmatik, shuningdek tarixiy-tadrijiy rivojlanishi jihatidan ham kognitiv asoslarini tadqiq qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

REFERENCES

1. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom-i.diss... T.:2007
2. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.
3. Олим С. Замон, юлбошчи ва сиёсий тил // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002 йил 18-октябрь.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). - Тошкент, Университет, 2000.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

³ Олим С. Замон, юлбошчи ва сиёсий тил // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002 йил 18-октябрь. 2-б.